НОВАЯ ЭРА НАУКИ И ЗНАНИЙ
МЕЖДУНАРОДНЫЙ НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ
global-science-review.com
editor@global-science-review.com

PSIXOLINGVISTIK OMILLARNING XORIJIY TILLARNI O‘RGANISHDAGI ASOSIY OMILLARI

Abdug‘aniyeva Mushtariy Muzaffarjon qizi
Andijon davlat chet tillari instituti, talaba.
E.mail:abduganiyevamushtariy23@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqola xorijiy tillarni o‘rganish jarayoniga ta’sir ko‘rsatuvchi psixolingvistik omillar masalasini chuqur tahlil qiladi. Tadqiqotda motivatsiya, til tashvishi, kognitiv jarayonlar, o‘ziga ishonch hamda o‘rganilayotgan tilga bo‘lgan munosabat kabi asosiy omillarning chet tili o‘zlashtirish samaradorligidagi o‘rni ko‘rib chiqiladi. Maqolada ushbu psixolingvistik omillarni hisobga olgan holda dars jarayonini tashkil etish yo‘llari va ularning ta’limdagi strategik ahamiyati ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar. Psixolingvistika, xorijiy til o‘rganish, motivatsiya, til tashvishi, kognitiv jarayonlar, xotira, o‘ziga ishonch, ta’lim metodikasi.

Zamonaviy ta’lim tizimida xorijiy tillarni o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi, chunki ular muloqot, kasbiy rivojlanish va madaniyatlararo aloqalarni kengaytirish imkoniyatini yaratadi. Ko‘pgina o‘quvchilar grammatik qoidalar va lug‘at boyligini o‘rganishga harakat qiladilar, biroq til o‘zlashtirish samaradorligi faqat intellektual qobiliyatlarga emas, balki psixolingvistik omillarga ham bog‘liq bo‘ladi.Psixolingvistika nuqtai nazaridan motivatsiya, til tashvishi, xotira, diqqat, o‘ziga ishonch va o‘rganilayotgan tilga bo‘lgan munosabat o‘quvchining muvaffaqiyatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun ushbu omillarni tahlil qilish va ularni dars jarayonida hisobga olish chet tili o‘qitish metodikasini takomillashtirishda dolzarb masala hisoblanadi. Tadqiqotning maqsadi xorijiy tillarni o‘rganishdagi asosiy psixolingvistik omillarni aniqlash va ularning til o‘zlashtirish jarayonidagi ahamiyatini ochib berishdan iborat.

Motivatsiya – til o‘rganishning asosiy harakatlantiruvchi kuchi. Motivatsiya o‘quvchining chet tilini o‘rganishga bo‘lgan istagini belgilovchi asosiy psixolingvistik omil hisoblanadi. U ikki turga bo‘linadi: ichki va tashqi motivatsiya. Ichki motivatsiya o‘quvchining tilga bo‘lgan qiziqishi, muloqot qilishdan zavq olishi orqali shakllanadi. Tashqi motivatsiya esa imtihonni muvaffaqiyatli topshirish, ishga kirish yoki chet-elga safar qilish maqsadi asosida vujudga keladi. Yuqori motivatsiyaga ega o‘quvchilar qiyinchiliklarga sabr-toqat bilan yondashadi, muntazam mashq qiladi va til o‘zlashtirish jarayonida faol ishtirok etadi.

Til tashvishi (lingvistik anksiyet). Til tashvishi o‘quvchining nutq paytida xatoga yo‘l qo‘yishdan, boshqalar oldida noqulay holatga tushishdan qo‘rqishi hisoblanadi. Yuqori darajadagi tashvish diqqatni tarqatadi, qisqa-muddatli xotira faoliyatini susaytiradi va o‘quvchining muloqotga kirishish istagini kamaytiradi. Shu sababli o‘qituvchi darsda qo‘llab-quvvatlovchi muhit yaratishi, xatolarni tanqid qilish emas, balki tuzatish imkoniyati sifatida qabul qilishi kerak. Bu psixolingvistik omilni kamaytirish orqali o‘quvchilarning nutq faoliyati samaradorligini oshirish mumkin.

Kognitiv omillar: xotira, diqqat va fikrlash jarayoni. Xorijiy tilni o‘zlashtirishda kognitiv jarayonlar muhim rol o‘ynaydi. Qisqa-muddatli xotira yangi so‘z va grammatik tuzilmalarni qabul qilishda, uzoq-muddatli xotira esa ularni saqlash va nutqda qo‘llashda xizmat qiladi. Diqqatning barqarorligi o‘quvchining o‘qituvchi nutqini, audio-materiallarni tushunishiga ta’sir ko‘rsatadi. Analitik fikrlash esa grammatik qoidalarni tushunish, ularni taqqoslash va mustaqil ravishda gap tuzish imkoniyatini beradi.

O‘ziga ishonch va o‘z-o‘zini baholash. O‘quvchining o‘z til bilimini baholashi uning nutqiy faoliyatiga bevosita ta’sir qiladi. O‘ziga ishongan o‘quvchi muloqotga faol kirishadi, xatolarini tahlil qiladi va yangi mashqlarga tayyor bo‘ladi. Aksincha, o‘zini past baholash o‘quvchining darsda sukut saqlashiga, nutq

mashqlaridan qochishiga olib keladi. O‘qituvchining ijobiy baholashi va rag‘batlantirishi o‘quvchida ishonch hissini shakllantirishda katta ahamiyatga ega.

Tilga hamda madaniyatga bo‘lgan munosabat. O‘quvchining o‘rganilayotgan tilga va shu til so‘zlashuvchilarining madaniyatiga bo‘lgan munosabati til o‘zlashtirish samaradorligiga ta’sir ko‘rsatadi. Ijobiy munosabat o‘quvchining til muhitiga kirishishi, adabiyot, musiqa va filmlar orqali tilni o‘rganish istagini kuchaytiradi. Salbiy munosabat esa o‘rganish jarayoniga befarqlikni keltirib chiqaradi.

Xulosa. Xorijiy tillarni o‘rganish jarayoni nafaqat grammatik qoidalar va lug‘at boyligini o‘zlashtirish, balki turli psixolingvistik omillarning birgalikda ta’siri ostida amalga oshadigan murakkab kognitiv-psixologik jarayon hisoblanadi. Tadqiqot davomida motivatsiya, til tashvishi, xotira, diqqat, o‘ziga ishonch hamda til va madaniyatga bo‘lgan munosabat kabi asosiy omillar tahlil qilindi.

Motivatsiya o‘quvchining til o‘rganishga bo‘lgan istagini belgilovchi asosiy kuch bo‘lsa, til tashvishi aksincha nutqiy faoliyatni qiyinlashtirishi mumkin. Kognitiv jarayonlar yangi til materialini qabul qilish va xotirada saqlashni ta’minlaydi, o‘ziga ishonch esa o‘quvchining muloqotga faol kirishishiga imkon beradi. Shu sababli o‘qituvchi dars jarayonida ushbu psixolingvistik xususiyatlarni hisobga olishi, qo‘llab-quvvatlovchi muhit yaratishi, o‘quvchilarni rag‘batlantirishi lozim.

Psixolingvistik omillarni to‘g‘ri hisobga olish chet tili o‘qitish metodikasini takomillashtirish, o‘quvchilarning til o‘zlashtirish samaradorligini oshirish va ularning nutqiy faoliyatini rivojlantirish imkoniyatini beradi. Kelajakda har bir o‘quvchining individual psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda dars tashkil etish masalasi yanada muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Gardner R. C. Motivation and Second-Language Acquisition. London: Ed ward Arnold, 1985.

2. Horwitz E. K. Language Anxiety and Achievement in Foreign-Language L earning // The Modern Language Journal, 1986.

3. Zimnyaya I. A. Psixolingvistika asoslari. Moskva: Prosveshcheniye, 1991.

4. G‘ulomova Sh. Tilshunoslik va psixolingvistika. Toshkent: O‘qituvchi, 201 0.

5. Sodiqov A. Chet tili o‘qitish metodikasi. Toshkent: Noshir, 2016.